



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy
Telefon: (871) 200-43-43, e-mail: info@uzpsb.uz, web-site: www.uzpsb.uz

"TASDIQLAYMAN"

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Komplayens-nazorat
departamenti direktori A.Yoqubjonov

**"O'zsanoatqurilishbank" ATB, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
bilan birgalikda o'tkazilgan "Korrupsiya va uning oqibatlari - korrupsiyaga qarshi
kurashishda amalga oshirilgan ishlar" mavzusidagi tadbiri"**
YIG'ILISH BAYONI

2024-yil 5-noyabr

Toshkent shahri

Ochiq eshiklar kuni" tadbirida
ishtirok etishdi:

Boshqaruv Raisi o'rinbosari S.Abdvaluiev

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi vakili

O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi,
korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi
vakili

Cert Internatinonal vakili

Tijorat banklari vakillari
Bank hududiy tarkibiy bo'linmalari xodimlari
OAV va jurnalistlar

Tadbir Bank Boshqaruvi Raisi o'rinbosari S.Abdvaluievning kirish so'zi bilan
boshlandi;

So'ng tadbir dasturiga muvofiq so'z O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi boshlig'i X.Tursunbekovga, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining Korrupsiyani oldini olish va Komplaens tizimini joriy etish boshqarmasi yetakchi inspektori M.Rasulovga, "Cert International" sertifikatсион organ vakili I.Ineleevga berildi.

Ma'ruzachilar o'z ma'ruzalarida Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik, O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablari, manfaatlar to'qnashuvi holatlari, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari, ISO 37001:2016 Xalqaro standar talablari, ushbu standartni joriy etishdan maqsad, bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ushbu xalqaro standartga to'liq muvofiqligi haqida batafsil tadbir ishtirokchilariga ma'lumot berildi.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar, aloqa kanallari orqali kelgan har bir relevant xabarlarga asosan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari va ushbu tekshiruvlar natijasida aniqlangan qoidabuzarliklar hamda ushbu qoidabuzarliklarni sodir etgan xodimlarga nisbatan qo'llanilgan choralar haqida ma'lumot berildi.

Tadbir davomida bank tizimida korrupsiyaga oid shubhali ma'lumotlarni qabul qilishga mo'ljallangan maxsus aloqa kanallari uzluksiz ravishda faoliyat yuritayotganligi;

Korrupsiyaviy va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar haqida mazkur aloqa kanallari orqali xabar berish mumkinligi, barcha kelib tushgan murojaatlar ko'rib chiqilishi, bunda xabar bergan xodim ta'qibga olinmasligi kafolati mavjudligi haqida bildirib o'tildi.

Bank xodimlari va mijozlarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirishga qaratilgan targ'ibot materiallari ko'lamini kengaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Korrupsiyaga qarshi
kurashish maxsus boshqarmasi
menejeri

A.Kurbanov